**UO‘K 94 (575.1)**

# SOVET DAVLATIDA FUQAROLARNING SAYLOV HUQUQIDAN MAHRUM QILINISHI TARIXIGA DOIR

**(1918–1936-yillar)**

**M.G‘. Abdullayev**

*Maqolada sovet tuzumining dastlabki o‘n yilliklarida bolsheviklar hokimiyati tomonidan fuqarolarga nisbatan yuritilgan saylov huquqidan mahrum qilish siyosati va uning evolyutsiyasi masalasi o‘rganilgan. Mamlakatda huquqdan mahrum qilish amaliyotining yuzaga kelish omillari, uning maqsadi tahlil etilgan. Saylov qonunchiligi, “mahrumlar”ning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, saylov huquqidan mahrum qilinganlar sonining yillar kesimidagi dinamikasiga doir ma’lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar**: *sovet davlati, saylovlar, saylov qonunchiligi, saylov huquqidan mahrum qilish, “mahrumlar”, konstitutsiya, “Jinoyat kodeksi”, saylov kampaniyasi.*

*В статье рассматривается политика лишения граждан избирательных прав, проводившаяся большевистской властью в первые десятилетия советского строя, и её эволюция. Анализируются причины возникновения и цели данной политики, особенности избирательного законодательства и социальное положение лиц, лишённых избирательных прав. На основе исторических данных прослеживается динамика численности «лишенцев» по годам, раскрываются особенности реализации данной политики в советском обществе.*

**Ключевые слова:** *советское государство, выборы, избирательное законодательство, лишение избирательных прав, «лишенцы», конституция, Уголовный кодекс, избирательная кампания.*

## KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda Vatan tarixshunosligida SSSRdagi siyosiy qatag‘onlar mavzusiga muhim e’tibor qaratilmoqda. Bunda tadqiqotchilar, eng avvalo, 1930–1950-yillardagi “Katta terror” va siyosiy jarayonlarga, shuningdek, GULAG tizimining yaratilishi va faoliyatiga ko‘proq murojaat qiladilar. Holbuki, sovet davlati aholining ayrim toifalariga nisbatan ijtimoiy-huquqiy kamsitishning keng ko‘lamli chora-tadbirlari majmuidan juda samarali foydalangan. Nisbatan yaqinda tarixchilar ma’lum toifasi e’tiborini torta boshlagan 1920–1930-yillardagi fuqarolarning saylov huquqidan mahrum qilinish masalasi ham ana shunday muhim mavzulardan biri sanaladi.

## MATERIAL VA METODLAR

Saylov huquqidan mahrum qilishga bag‘ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) 1920–1930-yillardagi sovet huquqshunoslari va davlat arboblarining ishlari; 2) 1950–1980-yillardagi sovet tarixchilarining asarlari; 3) zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari.

1920–1930-yillardagi saylov huquqidan mahrum etishga bag‘ishlangan ishlar amaliy, tavsiyaviy xususiyatga ega edi. Ularda saylov huquqidan mahrum qilish va uni tiklashni tashkil etishning real tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, ularda saylov huquqidan mahrum qilish tartibining turli huquqiy jihatlari ham ko‘rib chiqilgan. Ushbu nashrlar ko‘p jihatdan targ‘ibot xususiyatiga ega edi. Ularda saylov huquqidan mahrum qilish siyosatini “Oktabr inqilobi” yutuqlarini himoya qilish bilan bog‘liq vaqtinchalik, ammo zarur chora sifatida oqlangan. Bu davrga oid ishlardan M.F.Vladimirskiy [1], S.M.Brodovich [2], G.S.Gurvich [3, 4], P.I.Stuchka [5], A.S.Kiselyov [6], N.V.Krilenko [7], P.Zaysev [8], I.Bogovoy [9] kabi taniqli huquqshunoslar, davlat arboblari va publitsistlarning asarlarini alohida ta’kidlash lozim.

Fuqarolarning saylov huquqlarini cheklash tizimiga barham bergan 1936-yilgi SSSRning Yangi kons-

titutsiyasi qabul qilingach, bu mavzu o‘zining amaliy dolzarbligini yo‘qotdi. Shu munosabat bilan 1950-yillarga qadar saylov huquqidan mahrum etish muammosiga u yoki bu tarzda daxldor bo‘lgan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmadi.

1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab 1918–1936-yillardagi saylov huquqidan mahrum qilish masalasi sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklaridagi ijtimoiy siyosatning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan asarlarda bir necha bor ko‘tarilgan. Saylov huquqidan mahrum etish mavzusiga sovet tarixchilari V.G.Filimonov [10], L.F.Morozov [11], P.T.Vasilenkov [12], A.I.Lepyoshkin [13], I.Y.Trifonov [14], Y.S.Kukushkin [15], O.I.Chistyakov [16] asarlarida salmoqli o‘rin ajratilgan. Biroq ushbu mualliflar tomonidan foydalanilgan boy faktik material hamda uning asosida qilingan bir qator muhim kuzatuv va xulosalarga qaramay, ularning tadqiqotlaridagi jiddiy kamchiliklarni ham qayd etmaslikning iloji yo‘q. Kamchilikning asosiysi shundan iboratki, ularda saylov huquqidan mahrum qilishning huquqiy yoki axloqiy jihatlari emas, balki faqat ijtimoiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Saylovda ishtirok etish huquqidan mahrum qilishning ham alohida fuqaro, ham butun boshli aholi guruhlarining ijtimoiy maqomi jiddiy o‘zgarishiga olib kelgan oqibatlari tadqiqotchilar e’tiboridan deyarli chetda qolgan. Bundan tashqari, sovet davri tarixchilarining asarlarida, ma’lum sabablarga ko‘ra, fanda markscha-lenincha metodologiyaning hukmronligiga asoslangan qat’iy sinfiy yondashuv ustunlik qilgan. Tabiiyki, bunda saylov huquqidan mahrum qilish siyosiy qatag‘on sifatida emas, balki faqat sovet hokimiyatining ekspluatator sinflar qoldiqlariga qarshi kurashidagi zarur vositalaridan biri sifatida qaralgan.

1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlarida sovet davri ijtimoiy tarixini tadqiq etishda dogmatik sxemalar va eskirgan metodologiyadan voz kechish bilan bog‘liq yangi tendensiyalarning paydo bo‘lishi, shuningdek, ilgari “mutlaqo maxfiy” bo‘lgan arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyati saylov huquqidan mahrum qilishga oid bir qator ilmiy ishlarning yuzaga kelishiga xizmat qildi. Bu yillarda e’lon qilingan tadqiqotlarda [17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25] “haqsizlar” va “haqsizlik” muammosini jiddiy tadqiq etishga harakat qilingan, mualliflar mamlakat tarixshunosligida birinchi marta saylov huquqidan mahrum qilishni “keng ko‘lamli qatag‘on jarayoni” sifatida baholaganlar, uning siyosiy va mafkuraviy asoslarini ochib berishga harakat qilganlar. Lekin bu yillarda yaratilgan tadqiqotlarda ham “haqsizlar”ning ijtimoiy maqomida yuz bergan o‘zgarishlar deyarli tahlil etilmagan.

Ushbu maqolani tayyorlashda ilmiy tadqiqot olib borishning bir qancha metodlaridan foydalanildi. Xususan, tarixiy va xronologik metod saylov qonunchiligi evolyutsiyasi bosqichlarini, “huquqdan mahrum qilinganlar”ning yangi toifalari paydo bo‘lishini va saylov huquqlarini cheklash mexanizmini kuzatish imkonini bergan bo‘lsa, manbashunoslik tahlili va arxivlar bilan ishlash metodi saylov komissiyalari, mahalliy ijroiya komitetlari fondlari, yig‘ilish bayonnomalari va fuqarolarning shaxsiy ishlarini o‘rganish, saylov huquqidan mahrum etilgan fuqarolarning hokimiyat organlari nomiga yo‘llagan shikoyat va arizalarini yoritishga xizmat qildi. Shuningdek, maqolada qo‘llangan statistik metod “mahrumlar” ko‘lami, ularning ijtimoiy, tabaqaviy va milliy tarkibi haqidagi miqdoriy ma’lumotlarni qayta ishlashga imkon beradi.

## NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Saylov huquqidan mahrum etishning birinchi sezilarli oqibati insonni ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishdan chetlashtirish bo‘ldi. Ovoz berish huquqidan mahrum bo‘lganlarga komsomol va kommunistik partiyaga kirish yo‘li yopildi. Bundan tashqari, saylovlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi dastlabki yo‘riqnomalardayoq saylov komissiyalaridan saylov huquqidan mahrum etilgan shaxslarning qayta saylash yig‘ilishlarida ishtirok etmasligini qat’iy nazorat qilish talab etilgan edi. Yig‘ilishlarda ko‘pincha mahalliy aholining xo‘jalik, madaniy, ijtimoiy hayotiga oid masalalar muhokama qilingani hamda yangi saylanayotgan deputatlarga ko‘rsatmalar berilgani sababli bu tadbirlarda ishtirok eta olmaslik ko‘plab “haqsizlar”ning o‘z qishlog‘i, korxonasi va umuman jamiyat hayotidan amalda uzib qo‘yilishi sifatida baholangan. Saylov huquqidan mahrum etilgan fuqarolarning saylov huquqini tiklash uchun urinishlari ancha keng tarqalgan hodisa edi. Bunday harakatlarga barham berish uchun 1922-yil bahorida ishlab chiqilgan RSFSRning birinchi “Jinoyat kodeksi”ga alohida qoida kiritildi. Uning 104-moddasida: “Sovetlarga saylovlarda ishtirok etishga qonuniy huquqi bo‘lmagan shaxsning saylovda ishtirok etishi uch oydan kam bo‘lmagan muddatga majburiy mehnat bilan jazolanadi” deb qayd etilgan edi [26. B. 22]. Ushbu modda 1930-yillarning ikkinchi yarmiga qadar qabul qilingan “Jinoyat kodeksi”ning barcha tahrirlarida saqlanib qoldi.

Dastlab, sovet qonunchiligida saylov huquqidan mahrum qilish ma’lum bir tarixiy sharoit tufayli yuzaga kelgan vaqtinchalik chora sifatida qaralgan. Bi-

roq 1918- va 1925-yillardagi konstitutsiyalarda ham, dastlabki saylov yo‘riqnomalarida ham fuqarolarning saylov huquqlarini tiklash imkoniyatlari va tartibini belgilovchi moddalar mavjud emas edi. Bu jarayonning mexanizmi 1920-yillarning o‘rtalarigacha ishlab chiqilmagan. Bu holat, umuman olganda, yagona saylov qonunchiligining yo‘qligi bilan bog‘liq edi.

Faqat 1922-yildagi yo‘riqnoma bilan birinchi marta umumdavlat darajasida saylov huquqidan mahrum qilingan shaxslar navbatdagi saylovlar oldidan saylov huquqlarini tiklashga qanday erishishlari mumkinligi belgilab qo‘yildi. O‘zlarini mahrum etilganlar ro‘yxatiga nohaq kiritilgan deb hisoblagan fuqarolar bu xatti-harakatlar ustidan shikoyat qilishlari mumkin edi. Buning uchun ular ro‘yxat e’lon qilingan paytdan boshlab uch kun muddat ichida yuqori turuvchi komissiyaga, to oblast komissiyasigacha o‘z shikoyatlarini berishlari kerak edi. Shikoyat qaysi organning (ya’ni quyi saylov komissiyasining) xatti-harakatlari sabab bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha organ orqali berilardi. Ushbu organ 24 soat ichida shikoyatni o‘z xulosasi bilan birga yuqori instansiyaga yuborishi kerak edi.

Saylov huquqidan mahrum qilinganlarning yakuniy ro‘yxatlarini tasdiqlagan oblast saylov komissiyasining qarorlari ustidan oblast ijroiya komitetiga shikoyat qilinardi. Shunday qilib, saylov huquqini qayta tiklashni istagan odamlar bunga erishishlari juda mushkul edi. Birinchidan, huquqni tiklash uchun qisqa muddat berilardi, ikkinchidan, yakuniy qaror baribir fuqaroni huquqdan mahrum qilgan aynan o‘sha komissiyaning fikriga bog‘liq bo‘lardi.

1923-yildan boshlab saylov huquqlarini tiklash masalasini hal qilishda kishilarning sovet hokimiyatiga sodiqligi hal qiluvchi omillardan biriga aylandi. 1924-yil 11-avgustda navbatdagi umumrossiya saylov yo‘riqnomasi saylov huquqlarini tiklashni xohlovchilar uchun 1922-yilgi yo‘riqnomada keltirilgan shikoyat berish tartibi va muddatlarini belgiladi. 1925-yil 16-yanvardagi birinchi umumittifoq yo‘riqnomasida saylov komissiyalarining noto‘g‘ri harakatlari ustidan shikoyat berish muddati 7 kungacha uzaytirildi.

1924–1925-yillardagi saylovlarning nisbatan demokratikligi siyosiy rejimning yanada yumshashiga va natijada avvalgi yillarda saylov huquqidan mahrum etilganlarning barchasiga tez orada saylov huquqi qaytarilishiga umid uyg‘otdi. Mamlakat rahbariyatining bu kayfiyatlarga javobi 1925-yil yozida chiqqan NKVDning yo‘riqnomasi bo‘ldi. Unda mahalliy saylov komissiyalari va ijroiya komitetlariga faqat o‘zlari ariza bergan fuqarolarninggina saylov huquqlarini tiklash talabi qo‘yilgan edi.

1925-yil 13-oktyabrdagi yo‘riqnomaga ko‘ra, ovoz berish huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi qaror ustidan shikoyat qilish uchun fuqarolarga, avvalgidek, qaror e’lon qilingan paytdan boshlab bir haftalik muddat berilardi. Qishloq saylov komissiyalarining xatti-harakatlari ustidan tushgan shikoyatlarni ikki sutka mobaynida volost va rayon komissiyalari ko‘rib chiqardi. Agar ular u yoki bu fuqaroning saylov huquqlarini tiklash masalasini hal qila olmasa, uning shikoyati ko‘rib chiqish uchun uyezd yoki okrug komissiyasiga yuborilardi. Ularning qarorlari ustidan tushgan shikoyatlar tegishlicha viloyat va respublika komissiyalarida ko‘rib chiqilardi. Ularning qarorlari ustidan viloyat va respublika ijroiya komitetlari prezidiumlariga, bu prezidiumlar qarorlari ustidan esa faqat Butunrossiya Markaziy ijroiya komitetiga shikoyat qilish mumkin edi. Shaharlarda rayon saylov komissiyalarining xatti-harakatlari ustidan umumshahar komissiyasiga shikoyat qilish mumkin edi. Saylovlar oralig‘idagi davrda saylov huquqlarini tiklash to‘g‘risidagi iltimosnomalar tegishli kengashlar va ijroiya komitetlari tomonidan ko‘rib chiqilardi.

Sovetlar hokimiyat organlari sifatida boshidanoq ma’lum bir sinfiy xarakterga ega bo‘lib, butun jamiyatning emas, balki ijtimoiy quyi tabaqalarning manfaatlarini ifodalagan. RSFSRning 1918-yilgi konstitutsiyasida shunday ta’kidlangan edi: “Hokimiyat organlarining birortasida ham ekspluatatorlarga o‘rin bo‘lishi mumkin emas. Hokimiyat batamom va faqat mehnatkashlar ommasi hamda ularning vakolatli vakilligiga tegishli bo‘lishi kerak” [27]. Shu bilan birga, mehnatkashlarning o‘zlari o‘rtasidagi tengsizlik huquqiy jihatdan mustahkamlandi: bir shahar ishchisining ovozi beshta dehqonning ovoziga tenglashtirildi. Saylovda “ishlab chiqaruvchi va ijtimoiy foydali mehnat bilan tirikchilik qiluvchi” boshqa toifadagi fuqarolar, shuningdek, uy bekalari ham ishtirok etishiga ruxsat berildi. Shuningdek, mehnatkashlar toifasiga kiruvchi chet el fuqarolariga ham saylov huquqlari berildi. Ayni vaqtda, foyda ko‘rish maqsadida yollanma mehnatdan foydalanganlar, mehnatsiz daromad (kapitaldan keladigan foizlar, korxonalardan olinadigan daromadlar va h.) hisobiga yashagan shaxslar, savdogarlar, ruhoniylar, sobiq politsiyachilar, jandarmlar, podsho xonadoni a’zolari, ruhiy kasallar, vasiylikda bo‘lganlar hamda g‘arazli va badnom qiluvchi jinoyatlari uchun sudlanganlar saylash va saylanish huquqiga ega emas edilar [28. B. 561–562].

Mazkur qoidalar SSSRning 1924-yildagi va RSFSRning 1925-yildagi konstitutsiyalarida, shuningdek, ittifoqdosh respublikalar konstitutsiyalarida deyarli o‘zgarishsiz takrorlangan. Saylovlarni o‘tkazish tartibi va saylov huquqidan mahrum qilinadigan shaxslar toifasi mamlakat rahbariyati siyosatidagi burilishlarga qarab talablari o‘zgarib turadigan maxsus qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan.

Xususan, mamlakatdagi vaziyat barqarorlashgan sharoitda 1925-yil 13-oktyabrda Butunittifoq Markaziy ijroiya komitetining shahar va qishloq sovetlariga saylovlar o‘tkazish hamda sovetlar syezdlarini chaqirish to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi qabul qilingan. Unda ta’kidlanishicha, qishloq xo‘jaligida yollanma mehnatdan foydalangan shaxslar, agar bu holat xo‘jalikning mehnat xo‘jaligi doirasidan chiqib ketishiga olib kelmasa, saylov huquqidan mahrum etilmasligi kerak edi. Mehnat xo‘jaligining asosiy belgisi sifatida yollanma mehnatning yordamchi xususiyatga egaligi va unda mehnatga layoqatli oila a’zolarining majburiy ishtirok etishi belgilangan.

Kosiblar va hunarmandlar, tegirmon, moyjuvoz, mexanik dvigatelli qishloq xo‘jaligi texnikasi egalari va ijarachilari, agar ular ishda shaxsan ishtirok etgan bo‘lsalar, xo‘jalikda bitta yollanma ishchi yoki ikkita shogird bo‘lgan taqdirda ham saylovlardan chetlatilmas edilar. Aksincha, 1926-yil 4-noyabrdagi SSSR Markaziy ijroiya komiteti dekreti bilan tasdiqlangan shahar va qishloq sovetlariga saylovlar hamda sovetlar syezdlarini chaqirish to‘g‘risidagi yangi yo‘riqnoma saylov huquqidan mahrum qilinganlar doirasini ancha kengaytirdi. Ular qatoriga qishloq xo‘jaligi mashinalari, chorva mollarini muntazam ravishda foydalanishga berish yo‘li bilan “atrofdagi aholini qaram qilib olgan” yoki “qaramlik shartlarida” kredit bergan shaxslar, podsho armiyasining sobiq ofitserlari va harbiy amaldorlari kirdi. Dehqonlar va ishlab chiqarish vositalari (tegirmonlar, moyjuvozlar va boshqalar) egalari, shuningdek, yollanma mehnatdan nafaqat doimiy, balki vaqtincha ham “o‘z xo‘jaligini mehnat xo‘jaligi doirasidan tashqariga kengaytiradigan hajmda” foydalangan hunarmand va kosiblar saylov huquqidan mahrum etildi [29. B. 216].

Andijon rayonida yashovchi oqsoqol To‘xtaxo‘jayev Mulla Yo‘ldosh Andijon okrug saylov komissiyasiga 1926-yil 4-martda yozgan arizasida quyidagilarni bayon etadi: “Men To‘xtaxo‘jayev Mulla Yo‘ldosh 30 yillik umumiy stajga egaman. 11 tanob yerim bor. Ammo yoshim o‘tib qolgani, bu yerda yakka o‘zim ishlash imkoniyati yo‘qligi sababli men yollanma ishchi kuchidan foydalangan edim. Yollanma ishchi kuchidan foydalangan ekspluatator degan ayblov bilan meni saylov huquqidan mahrum qilishdi. Bu masalani adolat ko‘zi bilan qarab, ijobiy hal qilib berishingizni iltimos qilaman” [30. B. 42].

Arxivlarda bu kabi arizalar minglab uchraydi. Biroq bu arizalarning ijobiy hal etilgani haqida ma’lumotlar yo‘q.

Mahalliy saylov komissiyalari huquqiy normalarni o‘zlaricha talqin qilib, ko‘pincha ularga “sinfiy dushman” bo‘lib ko‘ringan barchani saylov huquqidan mahrum etilganlar ro‘yxatiga kiritar edilar. Andijon okrugida 1926-yilning oxirida SSSR Markaziy ijroiya komitetining yangi yo‘riqnomasini ijro etish natijalarini o‘rganish maqsadida okrug ijroiya komiteti tashkiliy bo‘limi yo‘riqchisi Stepanshin tomonidan Andijon rayonining maxsus tanlangan ikkita qishloq soveti – Yorboshi va Oltinko‘lda tekshiruv o‘tkazilgan. Uning yakunlari bo‘yicha tuzilgan ma’ruzanomada oddiy fuqarolarning asossiz ravishda saylov huquqidan mahrum etilganligiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Yorboshi qishloq sovetida 1 ming 976 ta xo‘jalik 9 ming 734 nafar aholi bo‘lgan, ularning aksariyati dehqonlar va hunarmandlar bo‘lgan. Qishloq sovetida ekin yerlari kam bo‘lib, dehqonlarning ekin yerlari har bir xo‘jalikda o‘rtacha 0,8 desyatinani tashkil etgan. Xo‘jaliklarning asosiy qismi – 1620 tasi (82,0 foizi) dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Ekin maydonlariga ko‘ra, xo‘jaliklarning 62 foizi o‘rtahollar toifasiga kirgan, ammo ularning ma’lum bir qismi dehqonchilikdan tashqari, boshqa mashg‘ulotlardan keladigan daromadlar hisobiga ham kun kechirgan. Xo‘jaliklarning atigi 41 foizi o‘z yerlariga shaxsiy ish hayvonlari yordamida ishlov bergan [30. B.75–76].

Ishchi hayvonlarining yetishmasligi ekin maydonlarini kengaytirishga imkon bermagan, shu bois aholining bir qismi hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Ayrim dehqonlar ish hayvoni yo‘qligi sababli islohot natijasida o‘zlariga ajratilgan yer maydonlariga ekin eka olmaganlar. Xo‘jaliklarda oila a’zolarining ko‘pligi va ekin maydonlarining kichikligi tufayli bu yerlarda yollanma mehnatdan deyarli foydalanilmagan. Alohida ishlarni birgalikda bajarish uchun bir qator xo‘jaliklarning ishchi kuchi, chorva mollari va mehnat asboblarini birlashtirishdan iborat bo‘lgan dehqonlar mehnat kooperatsiyasining an’anaviy shakllaridan biri – “sherik” ham muhim o‘rin egallagan. Ma’ruzanomada bu qishloq sovetida yollanma mehnatdan foydalanish darajasi deyarli yo‘q yoki juda past degan xulosaga kelingan [30. B. 76]. Ya’ni, yollanma mehnat doimiy ravishda faqat 9 ta xo‘jalikda (har birida 1–2 tadan chorikor bo‘lgan) foydalanilgan bo‘lib, bu holat nafaqat ishchi hayvoni va ekin maydoniga ega xo‘jaliklarda, balki yeri kam bo‘lsa-da, ko‘p mehnat talab qiladigan paxta yetishtirishda kam yerli xo‘jaliklarda ham kuzatilgan. Yollanma mehnat vaqtincha, ya’ni chigit ekish, g‘o‘zani chopiq qilish va paxta terish mavsumida qo‘llanilgan, bunda ham yollanuvchilar xo‘jalik egasining qarindoshlari bo‘lgan. Yorboshi qishlog‘ida xo‘jaliklarning qariyb 11 foizi o‘ziga ajratilgan yerdan tashqari ijaraga olingan yerdan ham foydalangan.

Yorboshi qishloq sovetida hunarmandlar va savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar 98 tani tashkil etib, ulardan faqat 23 tasida shogirdlar mehnatidan foydalanilgan.

1925–1926-yillardagi saylov kampaniyasida Yorboshi qishloq sovetida saylov yoshiga yetgan 4227 kishi bor edi. Ulardan 29 nafar savdogar, 36 nafar ruhoniy, 12 nafar hunarmand usta, jami 77 kishi saylov huquqidan mahrum etilgan.

1926-yilgi saylov kampaniyasida saylov huquqidan mahrum qilinganlar soni 89 kishiga yetgan. Yangidan ro‘yxatga tushganlarning asosiy qismini yollanma mehnatdan foydalangan dehqonlar tashkil qilgan [30. B. 77].

Oltinko‘l qishloq soveti 1644 ta xo‘jalikni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularda 8091 kishi yashagan. Bu yerda ham dehqonchilik xo‘jaliklari ko‘p bo‘lib, 1496 xo‘jalik (91 foiz) dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Bu qishloqda ham ekin yerlarining yetishmasligi kuzatilsa-da, o‘rtahol dehqonlar xo‘jaliklarning qariyb 78 foizini tashkil etgan. Xo‘jaliklarning 47 foizi ekin yeriga o‘zining ishchi hayvoni bilan ishlov bergan. Doimiy yollanma mehnatdan 19 ta xo‘jalikda, vaqtincha yollanma mehnatdan 112 ta xo‘jalikda foydalanilgan [30. B. 78].

Ma’ruzanomada aytilishicha, saylov huquqidan mahrum etilganlar ro‘yxatini tuzish “o‘ta noaniq” amalga oshirilgan. Ya’ni, egallab turgan mavqeyiga ko‘ra ro‘yxatga tushishi kerak bo‘lgan ko‘pgina kishilar unga kiritilmagan. Avvalgi saylovlarda 56 kishi, jumladan, 21 nafar ruhoniy saylov huquqidan mahrum qilingan. 1926-yilgi saylov kampaniyasida yangi yo‘riqnoma bo‘yicha saylov huquqidan mahrum qilinganlar qatoriga yollanma mehnatdan asosiy mehnat sifatida foydalanadigan 19 ta xo‘jalik (36 kishi), tegirmoni va moyjuvozi bo‘lgan 4 ta xo‘jalik (9 kishi), ruhoniylarning 3 ta xo‘jaligi (8 kishi), vaqtincha qassoblik bilan shug‘ullangan 3 ta xo‘jalik (7 kishi), 3 nafar ruhiy kasal qo‘shilgan va shu tariqa saylov huquqidan mahrum qilinganlarning umumiy soni 119 nafarga yoki 2 barobardan ko‘proqqa ortgan [30. B.78–79].

Ikkala qishloq sovetida ham pul mablag‘larini ma’lum shartlar asosida qarzga beruvchilar mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, bunday shaxslarni hisobga olishning imkoni yo‘q edi. Ma’ruzanomada ikkala qishloq soveti bo‘yicha ham yollanma mehnatdan foydalangan dehqonlar, duradgor ustalar va “asoratli foizlar bilan” qarz bergan shaxslarni yanada sinchiklab o‘rganish, hisobga olish zarurligi ta’kidlangan [30. B. 80].

Sovet davlatida fuqarolarni saylov huquqidan mahrum qilish jinoiy jazo chorasi sifatida ham nazarda tutilgan edi. 1926-yilgi “Jinoyat kodeksi”ga ko‘ra, siyosiy va ayrim fuqarolik huquqlaridan mahrum qilish mahkumga barcha huquqlar majmui bo‘yicha to‘liq, shuningdek, ularning alohida toifalari bo‘yicha ham tayinlanishi mumkin bo‘lib, ular qatorida faol va passiv saylov huquqidan bevosita mahrum qilish ham belgilab qo‘yilgan edi. Sud bir yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish to‘g‘risida hukm chiqarishda mahkumni huquqlaridan mahrum qilish masalasini ko‘rib chiqardi. Huquqlardan mahrum qilish ham mustaqil, ham qo‘shimcha ijtimoiy himoya chorasi sifatida tayinlangan. Shu bilan birga, u shartli hukm va jamoatchilik qoralashi bilan birga qo‘llanilishi, shuningdek, besh yildan ortiq muddatga tayinlanishi mumkin emas edi. Ko‘rib chiqilayotgan chora ozodlikdan mahrum qilishga qo‘shimcha jazo sifatida tayinlangan taqdirda, huquqlardan mahrum qilish qamoq jazosini o‘tashning butun davriga va bundan tashqari hukmda belgilangan muddatga ham tatbiq etilgan. Amnistiya yoki afv etish bo‘yicha mahkum muddatidan oldin ozod qilinganda, uning saylov huquqi qamoqdan ozod qilingan kunidan e’tiboran qayta tiklangan [24. B. 288–289].

Sovet mamlakatida saylov huquqidan mahrumlar soni uzluksiz oshib borgan. 1924-yilda RSFSRda ularning soni 700 ming kishini yoki barcha saylovchilarning 1,6 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1926-yilda saylovchilarning 4,5 foizini, 1927-yilda esa 7,7 foizini tashkil qildi [31. B. 21]. Boshqa respublikalarda “haqsizlar” soni odatda bundan ham yuqori bo‘lgan. 1929-yilda O‘zbekistonda saylov huquqidan mahrum qilinganlar barcha saylovchilarning 13,7 foizini tashkil etdi [32. B. 134].

Andijon okrugi saylov komissiyasining 1929-yil 1-sentabrdagi ma’lumotnomalariga ko‘ra, bu kungacha okrug bo‘yicha 21928 kishi saylov huquqidan mahrum qilingan. Ulardan 4133 tasi mayda tadbirkorlar, 3415 tasi “quloqlar”, 2543 tasi savdogarlar, 5620 tasi esa ruhoniylar bo‘lgan [33. B. 41].

Umuman olganda, e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, SSSRda 1927-yilda 7,7 foiz, 1929-yilda katta yoshdagi aholining 8,6 foizi saylov huquqidan mahrum etilgan. Sh.Fispatrik keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, 1930-yilda RSFSRda “haqsizlar” soni deyarli 2,5 million kishini, SSSR bo‘yicha esa kamida 4 million kishini tashkil etgan. Uning fikricha, keltirilgan raqamlarning taxminiy xususiyati shundan dalolat beradiki, hokimiyatning o‘zi ham qancha odam saylov huquqidan mahrum etilganini aniq bilmagan [24. B. 295]. Saylov huquqidan mahrumlar sonining ko‘payishi ularni sinchkovlik bilan aniqlash natijasi emas, balki yangi iqtisodiy siyosat tugatilishi munosabati bilan rahbarlikning ma’muriy-buyruqbozlik usullariga o‘tganligiga bog‘liq edi.

1929-yilda SSSR bo‘yicha 182 ming dehqon soliqlarni to‘lay olmagani uchun sudga berildi [34. B. 123]. Jarima, musodara, saylov huquqidan mahrum qilish, qamoqqa olish ommaviy jazo turi bo‘lib qoldi. Bu dehqonlarning faol, tadbirkor qatlamini qatag‘on qilish edi. Shu sababli ham butun mamlakatda dehqonlarning ommaviy norozilik harakatlari avj oldi, hatto qurolli chiqishlar ham yuz berdi. 1929-yilda mamlakatda 1300 ga yaqin isyon qayd qilindi [35].

Saylash va saylanish huquqi har doim fuqarolarning davlatni boshqarishda bevosita va to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etish imkoniyatini ta’minlovchi asosiy siyosiy huquqlari qatoriga kirgan. Biroq 1920–1930-yillarda Sovet davlatida saylovchilarga oldindan tayyorlangan muqobili bo‘lmagan nomzod yoki partiya organlari tomonidan tasdiqlangan ro‘yxat taqdim etilgan, saylovchilar xohlaydimi-yo‘qmi bularni saylashga majbur edi [36. B. 45]. Shu bilan birga, saylov huquqidan mahrum qilish oddiy rasmiyatchilik bo‘lmagan, chunki bu bilan kishi boshqa huquqlardan va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlaridan ham mahrum bo‘lardi. Saylov huquqidan mahrum etilgan shaxslar va ularning oila a’zolari o‘quv yurtlariga, partiya va komsomolga qabul qilinmas, ularning ishga joylashishi qiyinlashardi. “Haqsizlar”ni kolxozlarga olishmas, ular kooperativ yoki artel a’zosi bo‘la olmas, soliqqa tortishda esa ular zimmasiga og‘ir majburiyatlar yuklanardi. 1928-yilda mamlakatda kartochka tizimi joriy etilgandan so‘ng, huquqdan mahrum qilinganlar kartochka ololmadilar va oziq-ovqat mahsulotlarini tijorat narxlarida sotib olishga majbur bo‘ldilar, shuningdek, ular pensiya va nafaqalardan ham mahrum etilardi. 1929–1930-yillarda davlat muassasalaridan huquqdan mahrum qilinganlarni va boshqa “ijtimoiy yot unsurlar”ni chiqarib tashlash maqsadida “tozalash” ishlari o‘tkazildi. Kasalxonalar va sudlar, uy-joy va soliq idoralari, banklar hamda boshqa tuzilmalar ularga nisbatan kamsituvchi siyosat olib borishlari lozim edi [24. B. 298].

Sovet hukumatining 1930-yil avgustdagi maxfiy qarori bilan “tozalash”lar natijasida ishidan ayrilgan “haqsizlar” va boshqa xizmatchilarga ish berish taqiqlandi, ularni “o‘rmon kesish, ko‘mir qazish, qor tozalash ishlariga va faqat ishchi kuchi keskin yetishmaydigan joylarga yuborish” taklif qilindi [24. B. 145–147].

Saylov huquqidan mahrum qilinganlarning turli hokimiyat tuzilmalariga, jumladan, posyolka va rayon saylov komissiyalaridan tortib, davlat rahbari sifatida SSSR Oliy soveti prezidiumi raisi M.I.Kalininga, shuningdek, gazeta tahririyatlariga yo‘llagan maktublari e’lon qilingan [37].

Biroq amalda saylov huquqini tiklash ancha kamsituvchi ommaviy marosimlar bilan kechgan. Masalan, ruhoniylar omma oldida o‘z rutbasidan, hatto diniy e’tiqodidan ham voz kechishga majbur qilingan. Huquqlarini tiklash yo‘lida odamlar o‘z oila a’zolaridan, o‘tmishidan voz kechishgan, ba’zan ochiqdan ochiq yolg‘on gapirishga va ijobiy qaror qabul qilinishi qo‘lida bo‘lgan mansabdor shaxslarga pora berishga ham borishgan.

Faqat 1936-yilgi SSSRning yangi konstitutsiyasiga binoan, mamlakatning barcha voyaga yetgan fuqarolari, ruhiy xastalar va sud hukmi bilan saylov huquqidan mahrum qilinganlardan tashqari, saylash va saylanish huquqiga ega bo‘ldilar. Ijtimoiy va huquqiy kamsitish chorasi bo‘lgan huquqdan mahrum qilish amaliyoti 18 yil davom etgach, rasman bekor qilindi. Amalda esa ishga qabul qilishda to‘ldiriladigan sovet anketalarida 1936-yildan keyin ham “Siz qachonlardir saylov huquqidan mahrum etilganmisiz?” degan band saqlanib qolgan va bu sobiq “haqsizlar” hamda ularning oila a’zolarini kamsitishda davom etish imkonini bergan.

## XULOSA

Shunday qilib, 1920–1930-yillarda saylov huquqidan mahrum qilish jamiyatni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan sovet siyosatining eng muhim choralaridan biriga aylandi. Fuqarolar urushi davridagi to‘g‘ridan to‘g‘ri terrordan voz kechgan hokimiyat, yangi iqtisodiy siyosat yillarida o‘zi uchun yaqqol dushman deb hisoblagan ijtimoiy guruhlar va qatlamlarni yo‘q qilishning siyosiy usullariga o‘tdi. 1929-yilda yangi iqtisodiy siyosatga barham berilganidan so‘ng bu choralar yanada kuchaydi, saylov huquqidan mahrum bo‘lganlar jamiyatdan chetlatilib, keyingi qatag‘onlarga duchor etildi. Ta’kidlash lozimki, saylov huquqidan mahrum etilganlarning ko‘pchiligi sovet tuzumiga nisbatan ancha sodiq munosabatda bo‘lgan, boshiga tushgan kulfatni qandaydir xatolik oqibati deb qabul qilgan va adolatni tiklashni so‘rab yuqori organlarga murojaat qilgan. Biroq bu shikoyatlar kamdan-kam hollardagina ijobiy yechim topgan.

## Adabiyotlar:

1. *Владимирский М.Ф.* Организация Советской власти на местах. – Москва: Госиздат, 1921. – 146 с.
2. *Бродович С.М.* Советское избирательное право. – Ленинград: Госиздат, 1925. – 132 с.
3. *Гурвич Г.С*. Основы советской конституции. – Москва: Госиздат, 1921. – 162 с.
4. *Гурвич Г.С*. История советской конституции. – Москва: Издание Социалистической академии, 1923. – 216 с.
5. *Стучка П.И*. Революционная роль советского права. – Москва: Советское законодательство, 1934. – 158 с.

6. *Киселёв А.С*. Как избирать в Советы. – Москва: Власть Советов, 1927. – 130 с.

7. *Крыленко Н.В.* Права и обязанности советских граждан. – Москва: Объединённое государственное издательство, 1936. – 55 с.

8. *Зайцев П*. Кого и почему Советская власть лишает избирательных прав. – Москва: Власть Советов, 1930. – 59 с.

9. *Боговой И*. Что нужно знать к перевыборам Советов. К кампании 1927 г. – Москва: Власть Советов, 1927. – 66 с.

10. *Филимонов В.Г*. Первая Советская Конституция. – Москва: Политиздат, 1960. – 224 с.

11. *Морозов Л.Ф*. Решающий этап борьбы с нэпманской буржуазией (1926–1929 гг.). – Москва: Политиздат, 1960. – 220 с.

12. *Василенков П.Т*. Выборы советских представительных органов. – Москва: Политиздат, 1966. – 312 с.

13. *Лепёшкин А.И.* Советы власть трудящихся. 1917-1936 гг. – Москва: Политиздат, 1966. – 250 с.

14. *Трифонов И.Я*. Классы и классовая борьба в начале НЭПа (1921–1925 гг.). – Ленинград: Наука, 1969. – 306 с.

15. *Кукушкин Ю.С.* Сельские Советы и классовая борьба в деревне (1921–1932 гг.). – Москва: Изд. МГУ, 1968. – 294 с.

16. Чистяков О.И. Конституция РСФСР 1918 г. – Москва: Политиздат, 1984. – 148 с.

17. *Селунская В.М*. Социальная структура советского общества. История и современность. – Москва: Наука, 1987. – 316 с.

18. *Фицпатрик Ш.* Классы и проблемы классовой принадлежности в Советской России в 20-е гг. // Вопросы истории. – 1990. – № 8. – С. 16–31.

19. Письма во власть 1917–1927 гг.: Заявления, жалобы, доносы, письма в государственные структуры и большевистским вождям. / Под ред. О.В.Хлевнюка и др. – Москва: РОССПЭН, 1998. – 664 с.

20. *Саламатова М.С*. Лишенные избирательных прав в г. Новосибирске в 1927–1936 гг. / Корни травы: Сборник статей молодых историков. – Москва: Мемориал, 1996. – С. 9-22.

21. *Стецковский Ю.И*. История советских репрессий. Том 1. – Москва: «Знак СП», 1997. – 600 с.

22. *Тихонов В.И., Тяжельников В.С., Юшин И.Ф.* Лишение избирательных прав в Москве в 1920–1930-е гг. Новые архивные материалы и методы обработки. – Москва: Мосгосархив, 1998. – 256 с.

23. *Смирнова Т.М*. «Бывшие». Штрихи к социальной политике советской власти. // Отечественная история. – 2000. – №2. – С. 37–49.

24. *Фицпатрик Ш*. Повседневный сталинизм. Социальная история Советской России в 30-е годы: город. – Москва: РОССПЭН, 2001. – 336 с.

25. *Фицпатрик Ш*. Сталинские крестьяне. Социальная история Советской России в 30-е годы: деревня. – Москва: РОССПЭН, 2001. – 422 с.

26. Уголовный Кодекс РСФСР. – Москва: Издательство Военной коллегии Верховного трибунала при Всероссийском центральном исполнительном комитете, 1922.

27. Конституция (Основной Закон) РСФСР (принята V Всероссийским Съездом Советов в заседании от 10 июля 1918 г.) [Электронный ресурс]. URL: https://constitution.garant.ru/history/ussr-rsfsr/1918/ (Дата обращения: 11.12.2025)

28. Декреты Советской власти. Том II. 17 марта – 10 июля 1918 г. – Москва: Политиздат, 1959. – 698 с.

29. Собрание узаконений и распоряжений Рабочее-крестьянского правительства СССР. – 1926. – № 62. Отд. 1. – 380 с.

30. Андижон вилоят давлат архиви, 59-фонд, 1-рўйхат, 77-иш.

31. Итоги выборов в Советы РСФСР в 1927 г. – Москва, 1927. – 470 с.

32. Ўзбекистон Миллий архиви, Р-86-фонд, 1 рўйхат,6438-иш.

33. Андижон вилоят давлат архиви, 189-фонд, 1-рўйхат, 392-иш.

34. *Голованов А.А*. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992. – 160 с.

35. «Правда», 1988 г. 26 август.

36. *Тимофеева Л.С., Федорова Н.А*. Советская избирательная система при переходе к НЭП // История государственности Республики Татарстан и современность. – Казань, 2000. – С. 43–53.

37. Крестьянские истории: Российская деревня 1920-х годов в письмах и документах. / Сост., авт. предисл. С.С. Крюкова. – Москва: РОССПЭН, 2001. – 230 с.

# FROM THE HISTORY OF THE DISENFRANCHISEMENT OF CITIZENS IN THE SOVIET STATE

(1918-1936)

**Muzrob G. Abdullaev**[1]

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies*. 2026. 5(97). 32-41.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Key words:** Soviet state, elections, electoral legislation, deprivation of electoral rights, 'deprived', Constitution, Criminal Code, election campaign.

In recent decades, domestic historiography has devoted significant attention to the topic of political repression in the USSR. In this regard, researchers primarily focus on the "Great Terror" and the political processes of the 1930s–1950s, as well as the establishment and operation of the GULAG system. However, the Soviet state effectively employed a wide array of socio-legal discriminatory measures against certain categories of the population. The deprivation of citizens' voting rights in the 1920s and 1930s, an issue that has only relatively recently begun to attract the attention of certain historians, is one such important topic.

Literature is dedicated to the deprivation of voting rights can be broadly divided into three groups: 1) the works of Soviet legal scholars and statesmen of the 1920s and 1930s; 2) the works of Soviet historians of the 1950s–1980s; and 3) the scientific studies of contemporary researchers.

Several scientific research methods were used in the preparation of this article. In particular, the historical and chronological method made it possible to observe the evolutionary stages of electoral legislation, the emergence of new categories of the "disenfranchised," and the mechanisms for restricting electoral rights. Meanwhile, source analysis and archival research methods served to study the collections of election commissions and local executive committees, meeting minutes, and citizens' personal files, as well as to shed light on the complaints and appeals addressed to the authorities by disenfranchised citizens.

In Soviet legislation, the deprivation of voting rights was regarded as a temporary measure arising from specific historical circumstances. However, neither the 1918 and 1925 constitutions nor the initial electoral instructions contained provisions defining the possibilities and procedures for restoring citizens' voting rights. The mechanism for this process was not developed until the mid-1920s. Generally, this situation was due to the absence of unified electoral legislation.

From 1923, an individual's loyalty to Soviet power became one of the decisive factors in resolving the issue of restoring their electoral rights. The subsequent All-Russian Electoral Instruction of August 11, 1924, established the procedure and deadlines for filing appeals for those wishing to restore their electoral rights, as outlined in the 1922 Instruction. In the first All-Union instruction of January 16, 1925, the deadline for appealing against the wrongful actions of election commissions was extended to 7 days.

In the Soviet state, depriving citizens of their electoral rights was also envisaged as a criminal punishment. According to the Criminal Code of 1926, the deprivation of political and certain civil rights could be imposed on a convicted person in full across the entire set of rights, as well as for separate categories, which included the direct deprivation of active and passive electoral rights.

## References:

1. Vladimirskij, M.F. (1921). *Organizaciya Sovetskoj vlasti na mestah* [Organization of Soviet power in the localities]. Moscow: Gosizdat.

2. Brodovich, S.M. (1925). *Sovetskoe izbiratelnoe pravo* [Soviet Electoral Law]. Leningrad: Gosizdat.

3. Gurvich, G.S. (1921). *Osnovy sovetskoj konstitucii* [Fundamentals of the Soviet Constitution]. Moscow: Gosizdat.

4. Gurvich, G.S. (1923). *Istoriya sovetskoj konstitucii* [History of the Soviet Constitution]. Moscow: Publication of the Socialist Academy.

5. Stuchka, P.I. (1934). *Revolyucionnaya rol sovetskogo prava* [The Revolutionary Role of Soviet Law]. Moscow: Sovetskoe zakonodatelstvo.

6. Kiselyov, A.C. (1927). *Kak izbirat v Sovety* [How to elect to the Soviets]. Moscow: Power of the Soviets.

7. Krylenko, N.V. (1936*). Prava i obyazannosti sovetskih grajdan* [Rights and Duties of Soviet Citizens]. Moscow: United State Publishing House.

8. Zajcev, P. (1930). *Kogo i pochemu Sovetskaya vlast lishaet izbiratelnyh prav* [Who and why is the Soviet government depriving of electoral rights]. Moscow: Vlast Sovetov.

9. Bogovoj, I. (1927). *Chto nuzhno znat k perevyboram Sovetov. K kampanii 1927 g* [What you need to know about the re-election of Soviets. To the 1927 campaign]. Moscow: Vlast Sovetov.

10. Filimonov,V.G. (1960) *Pervaya Sovetskaya Konstituciya* [The First Soviet Constitution]. Moscow: Politizdat.

11. Morozov, L.F. (1960). *Reshayushiy etap borby s nepmanskoy burjuaziyey* (1926–1929 gg.) [The decisive stage of the struggle against the nepman bourgeoisie (1926-1929)]. Moscow: Politizdat.

12. Vasilenkov P.T. (1966). *Vybory sovetskih predstavitelnyh organov* [Elections of Soviet Representative Bodies]. Moscow: Politizdat.

13. Lepyoshkin, A.I. (1966). *Sovety vlast trudyashihsya. 1917–1936 gg.* [The Soviets and the Power of the Working People. 1917-1936]. Moscow: Politizdat.

14. Trifonov, I.Y. (1969). *Klassy i klassovaya borba v nachale NEPa (1921–1925 gg.)* [Classes and class struggle at the beginning of the NEP (1921-1925)]. Leningrad: Nauka.

15. Kukushkin,Yu.S. (1968). *Selskiye Sovety i klassovaya borba v derevne (1921–1932 gg.)* [Rural Soviets and Class Struggle in the Village (1921-1932)]. Moscow: Moscow State University Publishing House.

16. Chistyakov, O.I. (1984). *Konstitutsiya RSFSR 1918 g*. [Constitution of the RSFSR 1918]. Moscow: Politizdat.

17. Selunskaya V.M. (1987). *Sotsialnaya struktura sovetskogo obshestva. Istoriya i sovremennost* [Social Structure of Soviet Society. History and modernity]. Moscow: Nauka.

18. Ficpatrik, Sh. (1990). *Klassy i problemy klassovoy prinadlejnosti v Sovetskoy Rossii v 20-ye gg.* [Classes and problems of class affiliation in Soviet Russia in the 1920s*]. Voprosy istorii*. No 8. Pp.16-31.

19. Khlevnyuk, O.V. (ed.) (1998). *Pisma vo vlast 1917–1927 gg.: Zayavleniya, jaloby, donosy, pisma v gosudarstvennye struktury i bolshevistskim vojdyam* [Letters to the authorities of 1917-1927: Statements, complaints, denunciations, and letters to state structures and Bolshevik leaders]. Moscow: ROSSPEN.

20. Salamatova, M.S. (1996) Lishennye izbiratelnyx prav v g. Novosibirske v 1927–1936 gg. [Deprived of electoral rights in Novosibirsk in 1927-1936]. *Korni travy*: Sbornik statey molodyh istorikov [Roots of grass: Collection of articles by young historians]. Moscow: Memorial.

21. Steckovskij,Y.I. (1997). Istoriya sovetskih repressij [History of Soviet Repressions]. Vol. 1. Moscow: Znak SP.

22. Tihonov, V.I., Tyazhelnikov, B.C., Yushin, I.F. (1998). *Lishenie izbiratelnyh prav v Moskve v 1920–1930-e gg. Novye arhivnye materialy i metody obrabotki* [Deprivation of electoral rights in Moscow in the 1920s and 1930s. New archival materials and processing methods]. Moscow: Mosgosarkhiv.

23. Smirnova, T.M. (2000). «Byvshie». Shtrihi k socialnoj politike sovetskoj vlasti. ['The Former'. Highlights of the Soviet government's social policy]. *Russian history*. No 2. Pp. 37-49.

24. Ficpatrik, Sh. (2001). *Povsednevnyj stalinizm. Socialnaya istoriya Sovetskoj Rossii v 30-e gody: gorod* [Daily Stalinism. Social History of Soviet Russia in the 1930s: the city]. Moscow: ROSSPEN.

25. Ficpatrik, Sh. (2001). *Stalinskie krestyane. Socialnaya istoriya Sovetskoj Rossii v 30-e gody: derevnya* [Stalinist Peasants. Social History of Soviet Russia in the 1930s: the village]. Moscow: ROSSPEN.

26. (1922) *Ugolovnyj Kodeks RSFSR* [Criminal Code of the RSFSR]. Moscow: Publishing House of the Military Collegium of the Supreme Tribunal under the All-Russian Central Executive Committee.

27. (1918). *Konstituciya (Osnovnoj Zakon) RSFSR* (prinyata v Vserossijskim Syezdom Sovetov v zasedanii ot 10 iyulya 1918 g.) [Constitution (Basic Law) of the RSFSR (adopted by the 5th All-Russian Congress of Soviets at its meeting on July 10, 1918)]. [Online]. URL: https://constitution.garant.ru/history/ussr-rsfsr/1918/ (Date of Access: December 11, 2025)

28. (1959). *Dekrety Sovetskoj vlasti*. Tom II. 17 marta – 10 iyulya 1918 g. [Decrees of the Soviet Government. Vol. II. March 17 – July 10, 1918]. Moscow: Politizdat.

29. (1926). *Sobranie uzakonenij i rasporyazhenij Rabochee-krestyanskogo pravitelstva SSSR* [Collection of Legislation and Orders of the Workers' and Peasants' Government of the USSR]. No 62. Section 1.

30. Andijon viloyat davlat arxivi [Andijan Regional State Archive]. Fund 59, List 1, File 77.

31. (1927) *Itogi vyborov v Sovety RSFSR v 1927 g*. [Results of the elections to the Soviets of the RSFSR in 1927]. Moscow.

32. O'zbekiston Milliy arxivi [National Archive of Uzbekistan]. Fund R-86, List 1, File 6438.

33. Andijon viloyat davlat arxivi [Andijan Regional State Archive]. Fund 189, List 1, File 392.

34. Golovanov, A.A. (1992). *Krestyanstvo Uzbekistana: evolyuciya socialnogo polozheniya.* 1917-1937 gg. [Peasantry of Uzbekistan: evolution of social status. 1917-1937]. Tashkent: Fan.

35. (1988). 'Pravda'. August 26.

36. Timofeeva, L.S., Fedorova, N.A (2000). Sovetskaya izbiratelnaya sistema pri perekhode k NEP [Soviet electoral system during the transition to the NEP]. In: *Istoriya gosudarstvennosti Respubliki Tatarstan i sovremennost* [History of the Statehood of the Republic of Tatarstan and Modernity]. Kazan.

37. Kryukova, S.S. (ed.) (2001). *Krestyanskie istorii: Rossijskaya derevnya 1920-h godov v pismah i dokumentah* [Peasant Stories: The Russian Village of the 1920s in Letters and Documents]. Moscow: ROSSPEN.

*Muallif haqida ma'lumot:*

**ABDULLAYEV Muzrobjon G'ulomovich** – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi professori. E-mail: muzrobjon@list.ru